

## SUD PROTSESSIDA SUDYALAR VAKOLATLARIGA OID MASALALAR

**Musayev Hamzahon Zokirjon o‘g‘li**

Namangan davlat universiteti

Yuridik fakulteti 3-bosqich talabasi

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasining sud tizimi va sud protsessi, jinoyat va fuqarolik protsesslarida sud vakolatlari va sudyalarning vakolatlari va tergov sudyalarning asosiy ro‘lini muhokama etadi.

**Kalit so‘zlar:** sud hokimiyati, mustaqillik, sud protsessi, jinoyat protsessi, fuqarolik protsessi, sud vakolatlari, tergov sudyasi, instansiyalar, protsessual hujjatlar, O‘zbekiston Konstitutsiyasi.

O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati mustaqil bo‘lib, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning asosiy kafolati hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2017-yildagi Konstitutsiyaviy islohotlari sud tizimini takomillashtirishga qaratilgan keng qamrovli o‘zgartirishlarni amalga oshirdi. Sudya mustaqilligini ta‘minlash, protsessual vakolatlarni aniq belgilash va fuqarolarning huquqlarini samarali himoya qilish zamonaviy O‘zbekiston sud tizimining asosiy tamoyillaridir<sup>1</sup>.

Jinoyat protsessida sudyalarning nafaqat ayblov yoki oqlov hukmini chiqarish bilan cheklanmay, balki tergov harakatlarining qonuniyligini nazorat qilish, shaxsiy huquqlarni himoya qilish va protsess tengligini ta‘minlash kabi muhim vazifalarni bajaradilar<sup>2</sup>. Fuqarolik protsessida esa sudyalarning nizolarni hal qilishda tomonlarning huquqlari va

---

<sup>1</sup> Rahmonqulov H. Sud hokimiyati va sudyalarning mustaqilligi. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2020.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. – Toshkent: Adolat, oxirgi rasmiy nashr.

qonuniy manfaatlarini muvozanatlash, qonuniy asosda adolatli yechim topish va qarorlarning ijrosini ta'minlash mas'uliyatini yuklatadilar<sup>3</sup>.

O'zbekiston Respublikasida jinoyat ishlari bo'yicha odil sudlovni O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar, Toshkent shahar sudlari, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlari va harbiy sudlar amalga oshiradi.

Birinchi instansiya sudi jinoyat ishi bo'yicha hukm yoki ajrim chiqarish huquqiga ega. Apellyatsiya instansiyasi sudi birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hukmlari va ajrimlari ustidan berilgan shikoyatlar (protestlar) bo'yicha ishlarni ko'rib, hukm yoki ajrim chiqaradi. Kassatsiya instansiyasi sudi birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirgan hukmlari va ajrimlari ustidan, agar ular apellyatsiya tartibida ko'rilmagan bo'lsa, shikoyatlar (protestlar) bo'yicha ishlarni ko'rib, hukm yoki ajrim chiqaradi.

Taftish instansiyasi sudi birinchi instansiya sudining apellyatsiya yoki kassatsiya, tegishli taftish instansiyasi sudida ko'rib chiqilgan hukmlari va ajrimlari ustidan, shuningdek apellyatsiya yoki kassatsiya, tegishli taftish instansiyasi sudining hukmlari yoxud ajrimlari ustidan berilgan shikoyatlar (protestlar) bo'yicha ishlarni ko'rib, hukm, ajrim yoxud qaror chiqaradi.

Jinoyat protsessual ishlarda va sudlarida sudyalarning alohida vakolatlari bo'ladi.

Bularga, qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash yoxud qamoqda saqlash yoki uy qamog'i muddatini uzaytirish masalalari bilan bog'liq iltimosnoma, shikoyat va protestni ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risida ajrim chiqargan sudni albatta xabardor qilgan holda ko'rib chiqish; pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish; O'zbekiston Respublikasidan chiqish huquqini vaqtincha cheklash haqidagi iltimosnomani ko'rib chiqish; ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risidagi, shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish haqidagi yoki ayblanuvchining tibbiy muassasada bo'lishi muddatini uzaytirish to'g'risidagi, murdani eksqumatsiya qilish haqidagi, pochta-telegraf

---

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi. – Toshkent: Adolat, oxirgi rasmiy nashr.

jo'natmalarini xatlash to'g'risidagi, tintuv o'tkazish haqidagi, telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish to'g'risidagi, mol-mulkni xatlash haqidagi iltimosnomalarni ko'rib chiqish; prokurorning amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risidagi yoki jinoyat ishini tugatish haqidagi yoxud mahkumni jazodan ozod qilish to'g'risidagi iltimosnomasini ko'rib chiqish; prokurorning guvoh va jabrlanuvchining (fuqaroviy da'vogarning) ko'rsatuvlarini oldindan mustahkamlash to'g'risidagi iltimosnomasini ko'rib chiqish; prokurorning xorijiy davlat sudining qarorini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi iltimosnomasini ko'rib chiqish; jinoyat ishini sud muhokamasiga tayyorlash; dastlabki eshituv o'tkazish; ishni muhokama qilish va hukm chiqarish yoki boshqa qaror qabul qilish; ishni apellyatsiya, kassatsiya va taftish tartibida ko'rib chiqish; hukmni ijro ettirish kiradi<sup>4</sup>.

Yuqori sudlar, bundan tashqari, o'z vakolatlari doirasida quyi sudlarning sudlov faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradilar.

Sudya yakka o'zi yoki sud tarkibida ish tutib, Jinoyat protsessual Kodeksning 29-moddasida nazarda tutilgan vakolatlarni amalga oshiradi. Bundan tashqari, sudya ishni sud muhokamasiga tayyorlash bilan bog'liq harakatlarni bajaradi, sud majlisida raislik qiladi va ushbu Kodeksda nazarda tutilgan boshqa huquq va majburiyatlarni amalga oshiradi.

Tergov sudyasi yakka o'zi ish tutib, ushbu Kodeksda nazarda tutilgan tartibda sudga qadar ish yuritish bosqichida shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi ustidan sud nazoratini amalga oshiradi.

Tergov sudyasining vakolatlari jumlasiga: qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish; qamoqda saqlash yoki uy qamog'i muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish; ushlab turish muddatini qirq sakkiz soatgacha uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish; pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish; O'zbekiston Respublikasidan chiqish huquqini vaqtincha

---

<sup>4</sup> Rustamova D. "Sud mustaqilligi va sudya vakolatlari: amaliy tahlil." // O'zbekiston huquqshunosligi jurnali, 2023, №4.

cheklash haqidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish; ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish; shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish haqidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish; ayblanuvchining tibbiy muassasada bo‘lishi muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish; murdani eksqumatsiya qilish haqidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish; pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlash to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish; prokurorning guvoh va jabrlanuvchining (fuqaroviy da‘vogarning) ko‘rsatuvlarini oldindan mustahkamlash to‘g‘risidagi iltimosnomalarini ko‘rib chiqish; tintuv o‘tkazish to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish; telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish to‘g‘risidagi iltimosnomalarni ko‘rib chiqish; mol-mulkni xatlash to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish kiradi.

Shuningdek protsessual qonunchilikda , raislik qiluvchiga ham alohida e‘tibor qaratilgan.

Sud majlisida shu sudning raisi, uning o‘rinbosari yoki sudya raislik qiladi.

Raislik qiluvchi sud majlisiga rahbarlik qiladi, ishning barcha holatlarini sinchkovlik bilan, har tomonlama, to‘la va xolisona tekshirish hamda haqiqatni aniqlash uchun ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hamma choralarni ko‘radi, ko‘rilayotgan ishga aloqasi bo‘lmagan holatlarni sud muhokamasiga kiritmaydi.

Raislik qiluvchi sud majlisi zalida tartibga rioya qilinishini ta‘minlaydi. Uning farmoyishlari taraflar va barcha hozir bo‘lganlar uchun majburiydir.

Taraflardan yoki boshqa shaxslardan birortasi raislik qiluvchining harakatlariga e‘tiroz bildirgan taqdirda bu e‘tirozlar sud majlisining bayonnomasiga yozib qo‘yiladi.

Fuqarolik protsessual hujjalarda ham sud tizimi va sudyalarining vakolatlariga ham alohida e‘tibor qaratilgan

Odil sudlovni amalga oshirishda sud bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan hamda protsessual tizimga asoslangan harakatlarni amalga oshiradi. Bunday protsessual harakatlar tartibi O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual, Iqtisodiy protsessual, Jinoyat-protsessual va Ma‘muriy sud ishlarini yuritish kodeks larida belgilangan asosda, ya‘ni

ariza, da'vo arizasi, shikoyat, e'tiroz, protest, sudning hal qiluv qarorlari, qarorlar va ajrimlari shaklida o'z ifodasini topadi. Sud protsessual hujjatlari ixcham va belgilangan talablarga muvofiq tuzishni talab etadi. Protsessual qonun talablariga rioya qilinmasdan tuzilgan hujjatlar ish ko'rishni qiyinlashtiradi, qonunda ko'zda tutilgan ba'zi hollarda esa yuqori sudlar tomonidan sud qarorlarining o'zgartirilishiga yoki bekor qilinishiga olib keladi<sup>5</sup>.

Sud protsessual hujjatlari sud ishlarini yuritish turlari, fuqarolik, iqtisodiy, ma'muriy sud ishlarini yuritish va jinoyat protsessi bosqichlari, protsessual hujjatlarning tuzilishi, mazmuni, ushbu hujjatlarni tuzish yoki qabul qilish vakolatiga ega sub-yektlar doirasiga ko'ra turlarga bo'linadi. Masalan, fuqarolik sud ishlarini yuritish turlariga qarab da'vo tartibidagi ishlar (oila, uy-joy, mehnat munosabatlari, yetkazilgan zararni undirish, merosga oid ishlar va b.), buyruq tartibidagi ishlar, alohida tartibda yuri-tiladigan ishlar, hakamlik sudining hal qiluv qarori bilan bog'liq ishlar va chet davlat sudlarining hamda chet davlat hakamlik sudlarining (arbitrajlarining) hal qiluv qarorlarini tan olish va ijroga qaratish bilan bog'liq ishlar bo'yicha rasmiylashtiriladigan protsessual hujjatlarni misol sifatida keltirish mumkin<sup>6</sup>. Protsessual hujjatlarni tuzish yoki qabul qilish vakolatiga ega subyektlar doirasiga ko'ra, ular quyidagi turlarga bo'linadi: Sud (sudya) tomonidan qabul qilinadigan protsessual hujjatlar. Masalan, sud buyrug'i, qaror, sud ajrimi, hal qiluv qarori, hukm va boshqa protsessual hujjatlar. Sud yordamchisi tomonidan rasmiylashtiriladigan protsessual hujjatlar. Masalan, sud majlisi bayonnomasini rasmiylashtirish, sud chaqiruv qog'ozini yozish va yuborish va boshqa harakatlar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati mustaqillik va qonun ustuvorligi tamoyillariga asoslanadi. 2017-yildagi Konstitutsiyaviy islohotlar sud tizimini isloh qilishga, uning samaradorligi va ishonchliligini oshirishga qaratilgan bo'lib, bu jarayon sudyalarning vakolatlari va mas'uliyatlarini aniq belgilashda davom etmoqda.

---

<sup>5</sup>G'ulomov S. Sud tizimining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari. – Toshkent: Adolat, 2018.

<sup>6</sup>Jo'rayev Q. Fuqarolik protsessida sudyaning protsessual vakolatlari. – Toshkent: TDYU, 2021.

Jinoyat protsessida sud nafaqat ayblovchi yoki aybsizlik haqida hukm chiqaruvchi organ sifatida, balki dastlabki tergov bosqichidagi eng muhim kafolat – tergov sudyasi instituti orqali fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini himoya qiluvchi organ sifatida ishlaydi. Fuqarolik protsessida esa sud, tomonlarning huquq va manfaatlarini muvozanatlash, qonun doirasida adolatli qaror qabul qilish va bu qarorlarning ijrosini ta'minlash vazifasini bajaradi.

Sudlarning instansiyalararo ierarxiyasi (birinchi instansiya, apellyatsiya, kassatsiya, nazorat) nafaqat xatoliklarni tuzatish, balki qonuniylik va bir xillikni ta'minlashning muhim mexanizmi hisoblanadi. Protsessual hujjatlarning qonuniy talablariga qat'iy rioya qilinishi esa sud qarorlarining ob'ektivligi, asoslanganligi va ijro etilishining asosiy kafolatidir<sup>7</sup>.

O'zbekiston sud tizimini yanada takomillashtirish va sudyalarning vakolatlarini samaraliroq amalga oshirish uchun quyidagi takliflar ilgari surish mumkin:

### **1. Tergov sudyasi institutini yanada mustahkamlash va raqamlashtirish:**

Tergov sudyalarining qarorlarini onlayn rejimda (masalan, "Sudlash" tizimida) kuzatish imkoniyatini kengaytirish. Bu tergov harakatlari va ularga nisbatan berilgan shikoyatlar bo'yicha shaffoflikni oshiradi.

Tergov sudyalariga ehtiyot choralari qo'llanilayotgan shaxslarning huquqlari haqida tushuntirish berish majburiyatini joriy etish, ularning o'z huquqlarini bilishi va himoya qilish imkoniyatini oshirish.

### **2. Sudyalarning kasbiy mahoratini oshirish va ixtisoslashtirishni rivojlantirish:**

Sudyalarni ma'lum kategoriyadagi ishlar (masalan, iqtisodiy, texnologik jinoyatlar yoki kompleks fuqarolik nizolari) bo'yicha ixtisoslashtirish dasturlarini joriy etish. Bu muayyan soha nizolarini chuqurroq tushunish va yanada sifatli, asosli qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

---

<sup>7</sup> Karimov M. Sud jarayonini yuritish va odil sudlov tamoyillari. – Toshkent: Innovatsiya ziyo, 2022.

Sudya yordamchilari va kotiblarining malakasini oshirish bo'yicha muntazam treninglar o'tkazish, chunki ular protsessual hujjatlarning to'g'ri rasmiylashtirilishida asosiy rol o'ynaydi.

### **3. Sud protsessual hujjatlar standartlarini birlashtirish va soddalashtirish:**

Fuqarolik, jinoyat va ma'muriy protsesslar uchun protsessual hujjatlarning (da'vo arizalari, shikoyatlar, sud qarorlari) standart shablonlarini ishlab chiqish va joriy etish. Bu nafaqat fuqarolar va yuristlar uchun ish yuritishni osonlashtiradi, balki sudlarda ishlarni ko'rib chiqish jarayonini ham soddalashtiradi va tezlashtiradi.

Barcha sud qarorlarining elektron arxivini yuritish va ularga (maxfiylik cheklovlaridan tashqari) oson kirish imkoniyatini yaratish. Bu sud amaliyotining bir xilligini ta'minlashda, huquqshunos olimlar va talabalar uchun qimmatli manba bo'lishida muhim ahamiyatga ega.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent.2023 yil
2. "Sudlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni. – Toshkent: Adolat, 2021.
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. – Toshkent: Adolat, oxirgi rasmiy nashr.
4. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi. – Toshkent: Adolat, oxirgi rasmiy nashr.
5. Rahmonqulov H. Sud hokimiyati va sudyalarning mustaqilligi. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2020.
6. Sharipov Sh. Jinoyat protsessida sudning o'rni va vakolatlari. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar uyi, 2019.
7. G'ulomov S. Sud tizimining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari. – Toshkent: Adolat, 2018.
8. Jo'rayev Q. Fuqarolik protsessida sudyaning protsessual vakolatlari. – Toshkent: TDYU, 2021.
9. Karimov M. Sud jarayonini yuritish va odil sudlov tamoyillari. – Toshkent: Innovatsiya ziyo, 2022.



10. Rustamova D. “Sud mustaqilligi va sudya vakolatlari: amaliy tahlil.” // O‘zbekiston huquqshunosligi jurnali, 2023, №4.